

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDAN BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATSION- LOYIHAVIY MODEL

ИНТЕГРАТИВНО-ПРОЕКТНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

INTEGRATIVE-PROJECT MODEL OF DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY IN SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Gulbahor Eshbekova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

mustaqil tadqiqotchi

gulbakhreshbekova@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda globallashtirish, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ta'limning kompetensiyaviy modelga o'tishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xalqaro ta'lim standartlari va ilg'or pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, chet tilini alohida fan sifatida emas, balki boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'qitish o'quvchilarning kommunikativ, kognitiv va amaliy kompetensiyalarini yanada samarali rivojlantiradi. Shu sababli ingliz tilini fanlararo integratsiya asosida o'qitish zamonaviy maktab ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biri hamda davr talabiga aylangan.

Ingliz tilini o'qitishda CDIO yondashuvini qo'llash o'quvchilarning til kompetensiyasini loyiha faoliyati, tadqiqot ishlari, muammoli vaziyatlar va fanlararo topshiriqlar orqali rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvda ingliz tili muloqot vositasi sifatida qo'llanilib, o'quvchilar turli fanlarga oid ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, muhokama etish, taqdimotlar tayyorlash va jamoaviy loyihalarni amalga oshirish jarayonida chet tilidan faol foydalanadilar. Natijada nafaqat lingvistik kompetensiya, balki akademik savodxonlik, ijodiy tafakkur, mustaqil ta'lim olish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'nikmalar ham rivojlanadi.

Kalit so'zlar. ingliz tili ta'limi, bilish kompetensiyasi, fanlararo integratsiya, CDIO yondashuvi, loyihaviy ta'lim, individual yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim.

Аннотация. В условиях глобализации, стремительного развития цифровых технологий и перехода системы образования к компетентностной модели возникает необходимость совершенствования содержания и методики обучения английскому языку в общеобразовательных школах. Международные

образовательные стандарты и передовой педагогический опыт свидетельствуют о том, что преподавание иностранного языка не как отдельной дисциплины, а во взаимосвязи с другими учебными предметами способствует более эффективному развитию коммуникативных, когнитивных и практических компетенций учащихся. В связи с этим межпредметная интеграция в обучении английскому языку становится одним из приоритетных направлений современного школьного образования.

Применение подхода CDIO в обучении английскому языку позволяет развивать языковую компетентность учащихся посредством проектной деятельности, исследовательских заданий, проблемных ситуаций и межпредметных задач. В рамках данного подхода английский язык используется как средство коммуникации, а учащиеся активно применяют его в процессе поиска, анализа и обсуждения информации по различным учебным дисциплинам, подготовки презентаций и выполнения командных проектов. В результате развиваются не только языковая компетентность, но и академическая грамотность, творческое мышление, навыки самостоятельного обучения, а также умения, способствующие формированию профессиональных компетенций, соответствующих требованиям современного рынка труда.

Ключевые слова. обучение английскому языку, познавательная компетентность, межпредметная интеграция, подход CDIO, проектное обучение, индивидуальный подход, компетентностно-ориентированное образование.

Abstract. In the context of globalization, the rapid development of digital technologies, and the transition to a competency-based education model, there is an increasing need to improve the content and methodology of English language teaching in general secondary schools. International educational standards and advanced pedagogical practices demonstrate that teaching a foreign language not as an isolated subject but in close integration with other disciplines contributes more effectively to the development of learners' communicative, cognitive, and practical competencies. Therefore, interdisciplinary integration in English language teaching has become one of the priority directions of modern school education.

The application of the CDIO (Conceive–Design–Implement–Operate) approach in English language teaching enables the development of learners' language competence through project-based activities, research tasks, problem-solving situations, and interdisciplinary assignments. Within this approach, English is used as a means of communication, allowing learners to actively search for, analyze, discuss, and present information from different subject areas while participating in collaborative projects. As a result, learners develop not only language competence but also academic literacy, creative thinking, self-directed learning skills, and

competencies that contribute to professional readiness in accordance with the demands of the modern labor market.

Keywords. *English language teaching, cognitive competence, interdisciplinary integration, CDIO approach, project-based learning, individualized approach, competency-based education.*

Jahon ta'lim tizimida kechayotgan tub islohotlar, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda bilimlarga asoslangan jamiyatning shakllanishi ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. XXI asrda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatish emas, balki ularda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal etish va innovatsion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Shu bois dunyoning rivojlangan ta'lim tizimlarida fanlararo integratsiya (interdisciplinary learning), loyihaviy ta'lim (project-based learning), STEAM va CLIL kabi innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda.

Chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishda ham mazkur tendensiyalar tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, biznes va innovatsiyalar tili sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli ingliz tilini o'qitish mazmuni grammatik bilimlar va leksik birliklarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, uni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rgatishga yo'naltirilmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarning til kompetensiyasini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fanlararo bog'liqlikni anglash hamda kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kommunikativ, tahliliy va hamkorlik kompetensiyalari ham rivojlanadi.

Fanlararo integratsiya o'quvchilarga ingliz tilidan olgan bilimlarini matematika, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari, muhandislik va ijtimoiy fanlar kontekstida qo'llash imkonini yaratadi. Natijada til o'rganish sun'iy mashqlar bilan cheklanmay, real hayotiy va kasbiy vaziyatlar bilan bog'lanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik kabi XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiyalar CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tavsiyalarida ham til ta'limining asosiy natijalari sifatida e'tirof etilgan.

Fanlararo integratsiya o'quvchilarning bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki yagona tizim sifatida idrok etishiga imkon yaratadi. Ingliz tili matematika, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari, muhandislik, ekologiya va ijtimoiy fanlar bilan uyg'unlashtirilgan holda o'qitilganda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi bilan bir qatorda analitik tafakkuri, axborot bilan ishlash madaniyati, jamoada ishlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi. Bu esa CEFR (2020),

OECD Learning Compass 2030 hamda UNESCO tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillariga to'liq mos keladi.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda CDIO (Conceive–Design–Implement–Operate) yondashuvi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'qitishda CDIO yondashuvini qo'llash o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchi va loyiha ishtirokchisiga aylantiradi. O'quvchilar ingliz tilida muammolarni tahlil qiladi, axborot izlaydi, loyiha yaratadi, taqdimot o'tkazadi, guruhlarda hamkorlik qiladi va yakuniy mahsulotni himoya qiladi. Bunday faoliyat natijasida til kompetensiyasi bilan bir qatorda tadqiqotchilik, innovatsion fikrlash, kommunikativ madaniyat va liderlik kompetensiyalari ham rivojlanadi. Ayniqsa, ingliz tilini STEAM yo'nalishidagi fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitishda CDIO yondashuvi nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlovchi samarali metodologik model sifatida namoyon bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'limni samarali tashkil etishda CDIO (Conceive–Design–Implement–Operate) yondashuvi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model dastlab Massachusetts Institute of Technology (MIT) hamda Shvetsiyaning yetakchi texnika universitetlari tashabbusi bilan muhandislik ta'limini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u kompetensiyaga asoslangan ta'limni tashkil etishning universal modeli sifatida turli ta'lim yo'nalishlarida qo'llanilmoqda. CDIO konsepsiyasining asosiy g'oyasi ta'lim jarayonini muammoni aniqlash (Conceive), yechimni loyihalash (Design), uni amalga oshirish (Implement) va natijalarni baholash hamda takomillashtirish (Operate) bosqichlari asosida tashkil etishdan iborat.

Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida xorijiy tillarni kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Biroq amaliyot tahlili ingliz tilini CDIO yondashuvi asosida integratsiyalab o'qitish metodikasi, uning didaktik modeli, o'quv-topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi sababli, mazkur holat, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini fanlararo integratsiya asosida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, CDIO yondashuviga tayangan metodik modelni ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali asoslash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ushbu yondashuv asosida integratsiyalab o'qitish metodikasi zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Shuningdek, respublikamizda olib borilayotgan islohotlar hamda ta'lim sohasidagi izchil o'zgarishlar umumta'lim maktablari o'quvchilarini zamonaviy talablar asosida tayyorlash jarayoniga qo'yiladigan talablarning yangilanishiga olib kelmoqda. Yangi bilimlar hajmining doimiy ravishda oshib borishi ta'lim jarayoni mazmuni va shakllarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu sharoitda ingliz tilini o'qitishda an'anaviy usullardan foydalanish o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni, xususan kommunikativ tayanch kompetensiyani to'liq rivojlantirishni ta'minlab bera olmaydi. Bunday vaziyatda umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etishga bo'lgan yondashuvlarni takomillashtirish, o'quvchilarni mustaqil bilish faoliyatiga, ijodiy fikrlashga va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga keladi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitish jarayonida individual yondashuvga asoslangan, fanlararo integratsiyani ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida ingliz tili ta'limini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarni aniqlash va hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, yakka tartibda va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish usullari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

Pedagogik tajribalarga ko'ra, fanlararo integratsiya asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarining til bilish kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlarini aniqlash va amalga oshirishda loyiha metodi hamda loyiha faoliyatidan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, fanlararo integratsion ta'lim loyihasi muntazam takrorlanib turadigan an'anaviy o'quv faoliyatidan farq qiladi, chunki loyiha aniq belgilangan maqsadga, amalga oshirish muddati va yakuniy natijaga ega bo'lgan "hayotiy sikl" asosida tashkil etiladi. Loyiha faoliyati jarayonida mahsulot (taqdimot, loyiha ishi, ijodiy topshiriq va boshqalar) yaratishning boshlanish va tugash nuqtalari aniq belgilangan bo'lib, bu o'quvchilarda faoliyatni rejalashtirish va natijaga yo'naltirilgan fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shunday qilib, fanlararo integratsion ta'lim loyihasi muayyan yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, u umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilini o'rganish jarayonini amaliy, mazmunli va ongli faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv individual ta'lim traektoriyasini hisobga olish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ingliz tilidan bilish kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Loyihalash faoliyatining natijasi o'ziga xos va yangi bo'lib, u avvalgi tajribalar va prototiplarga tayangan holda yaratilishi mumkin. Yangi mahsulot yoki xizmatni

ishlab chiqish, yoxud mavjud o'quv mahsulotini takomillashtirish zarurati paydo bo'lgan hollarda loyiha faoliyati yuzaga keladi. Bunda o'quvchilar ko'pincha "nima" va "qanday" amalga oshirish masalalarida izlanish holatida bo'ladilar, bu esa ularni faol bilish va ijodiy fikrlash jarayoniga jalb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida fanlararo integratsion ta'lim loyihalarini amalga oshirishda CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) universal modelining bajarilish algoritmgiga tayangan holda ish olib boriladi. Ushbu model yangi o'quv mahsulotlari yoki ta'limiy xizmatlarni yaratishning "hayotiy sikli"ni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, CDIO algoritmini faqat muhandislik ta'limida emas, balki umumta'lim maktablarida ingliz tilini individual yondashuv asosida o'rgatishda ham loyihaviy faoliyatni tashkil etish uchun samarali metodologik asos sifatida qo'llash mumkin.

CDIO modelining Conceive (o'ylab chiqish) bosqichida o'quvchilar loyiha g'oyasini shakllantiradilar, muammoni aniqlaydilar va ingliz tilida bajariladigan faoliyat maqsadini belgilaydilar. Design (loyihalash) bosqichida loyiha mazmuni, topshiriqlar ketma-ketligi, foydalaniladigan til vositalari va fanlararo bog'lanishlar rejalashtiriladi. Implement (amalga oshirish) bosqichida rejalashtirilgan faoliyat ingliz tilida bajarilib, o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazadilar. Operate (qo'llash va boshqarish) bosqichida esa loyiha natijalari taqdim etiladi, baholanadi va real ta'limiy yoki ijtimoiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. CDIO modeli metaforik jihatdan DNK molekulasiga qiyoslanishi mumkin, chunki u loyihalarni amalga oshirish jarayonida yangi o'quv mahsulotlari va xizmatlarini yaratishning evolyutsion rivojlanishini aks ettiruvchi "pedagogik axborot"ni o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan, fanlararo integratsion ta'lim loyihalarini CDIO modeli asosida tashkil etish umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasini izchil, tizimli va individual yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasini rivojlantirishda fanlararo integratsion ta'lim loyihasidan foydalanish jarayonida biz CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) modelining asosiy standartlariga tayanamiz. Tadqiqotimiz doirasida mazkur standartlar ingliz tilini individual yondashuv asosida o'rgatish texnologiyasiga moslashtirilgan holda talqin etiladi. CDIO standartlariga asoslangan yondashuv fanlararo integratsiyani ta'minlash, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni loyiha faoliyatiga ongli va faol jalb etish hamda ingliz tilidan bilish kompetensiyasining lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy komponentlarini izchil rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, tadqiqotda CDIO modelining har bir bosqichi ingliz tilini o'qitish jarayonining mazmuni, shakl va metodlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Standart 1 ga muvofiq, fanlararo integratsion ta'lim loyihasini amalga oshirish jarayoni to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: Conceive (o'ylab chiqish), Design (loyihalash), Implement (amalga oshirish) va Operate (qo'llash va boshqarish). Ushbu bosqichlar loyiha faoliyatining mantiqiy ketma-ketligini tashkil etib, loyiha natijasida yaratiladigan o'quv mahsulotining hayotiy siklini aks ettiradi.

Standart 2 ga muvofiq, CDIO algoritmgiga asoslangan loyiha faoliyati natijalari umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Bu jarayonda ingliz tilida bilim olish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish hamda fanlararo mazmun asosida o'quv mahsulotlarini yaratish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning rivoji ta'minlanadi.

Standart 3 ga muvofiq, fanlararo integratsiya hisobga olingan holda o'quv fanlari mazmunining uyg'unlashuvi o'quvchilarda mavjud bilimlar yetishmovchiligini bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu holat ingliz tilini o'rganishda zarur bo'lgan fanlararo bilimlarni to'ldirish va kutilgan ta'lim natijalariga erishishga imkon yaratadi.

Standart 4 ga muvofiq, fanlararo integratsion ta'lim loyihasini amalga oshirish jarayonida jamoaviy faoliyatni tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy va shaxslararo kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhda ishlash orqali o'quvchilar ingliz tilida hamkorlik qilish, o'z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash va birgalikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Standart 5 ga ko'ra, fanlararo integratsion ta'lim loyihasi doirasidagi vazifalar yangi o'quv mahsulotlarini yaratishga yo'naltiriladi. Mazmuni va murakkablik darajasiga ko'ra bunday loyihalar axborot-iste'molchi, madaniy-kognitiv va ijodiy-innovatsion xarakterga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarning ingliz tilini turli faoliyat turlarida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Standart 6 ga muvofiq, umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos keluvchi faoliyatga yo'naltirilgan (kvazi-professional) ta'lim elementlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Standart 7 va 8 talablariga muvofiq, fanlararo integratsion ta'lim loyihasini amalga oshirish jarayonida umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasini rivojlantirish integrallashgan o'quv vazifalari, faol ta'lim metodlari hamda o'zaro o'rganishga asoslangan topshiriqlardan foydalanish orqali ta'minlanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ingliz tilini amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirishga xizmat qiladi. Integrallashgan o'quv vazifalari fanlararo mazmun asosida ishlab chiqilib, o'quvchilarning ingliz tilidagi bilimlarini real ta'limiy va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Faol ta'lim usullaridan

foydalanish esa o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga hamda kommunikativ faoliyatga faol jalb etadi. O'zaro o'rganishga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilar bir-biri bilan hamkorlikda ishlash, fikr almashish va o'z bilimlarini baholash tajribasini egallaydilar.

Natijada fanlararo integratsion ta'lim loyihasi doirasida tashkil etilgan mazkur pedagogik faoliyat umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasining lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsion ta'lim loyihasi ustida ishlash bosqichlari CDIO modelining asosiy bosqichlari bilan uzviy bog'liq holda tashkil etiladi (–jadval). CDIO algoritmgiga tayangan holda fanlararo integratsion ta'lim loyihasini amalga oshirish loyiha faoliyatini loyihalash va boshqarish jarayoniga mos keladi. Ushbu yondashuv umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

CDIO standartlariga asoslangan loyiha faoliyati jarayonida integrallashgan o'quv vazifalarini bajarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, faol va interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash hamda o'quvchilarning erishilgan natijalarini monitoring qilish nazarda tutiladi. Mazkur jarayon ingliz tilini individual yondashuv asosida o'rgatish mexanizmining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsion ta'lim loyihasi bosqichlarining CDIO modeliga mosligi

CDIO bosqichlari	Fanlararo integratsion ta'lim loyihasi bosqichlari
C (Conceive) – O'ylash	1-bosqich. O'rganish ehtiyojini aniqlash; muammo, maqsad va vazifalarni belgilash; ingliz tilida bajariladigan loyiha faoliyatining yo'nalishini aniqlash.
D (Design) – Loyihalash	2-bosqich. Muammoni hal etish yo'llarini rejalashtirish; faoliyat ketma-ketligini belgilash; fanlararo mazmun va til vositalarini tanlash; zarur resurslarni aniqlash.
I (Implement) – Amalga oshirish	3-bosqich. Loyihani bajarish; ingliz tilida amaliy topshiriqlarni bajarish; jarayonni nazorat qilish; oraliq baholash va qarorlar qabul qilish.

O (Operate) – Qo‘llash va boshqarish	4-bosqich. Loyiha natijalarini taqdim etish; sifatni baholash; refleksiya va tahlil; xatolar ustida ishlash; qayta aloqa asosida faoliyatni takomillashtirish.
--------------------------------------	--

Jadvalda keltirilgan bosqichlar fanlararo integratsion ta’lim loyihasini tizimli va izchil amalga oshirishni ta’minlaydi hamda umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ingliz tilidan bilish kompetensiyasining lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, ta’limning kompetensiyaviy modelga o’tishi, raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi va fanlararo integratsiyaning kuchayishi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mazkur sharoitda ta’lim jarayonini o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, bilish ehtiyojlari va o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, individual yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz tili ta’limi har bir o‘quvchining kommunikativ salohiyatini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini shakllantirish hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Individual ta’lim trayektoriyasini yaratish differensial topshiriqlar, moslashtirilgan o‘quv materiallari va zamonaviy raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Uchinchidan, ingliz tilini fanlararo integratsiya asosida o‘qitish o‘quvchilarda bilimlarning yaxlitligini ta’minlaydi, tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda kommunikativ, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, hamkorlik va ijodkorlik kabi tayanch kompetensiyalarni rivojlantiradi. Fanlararo integratsiya ta’lim mazmunining amaliy yo‘nalganligini kuchaytirib, ingliz tilining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, CDIO yondashuvi ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limni samarali tashkil etishning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni muammoni aniqlash, yechimlarni loyihalash, ularni amaliyotga tatbiq etish va natijalarni tahlil qilish jarayonlariga faol jalb etib, ingliz tilidan kommunikativ vosita sifatida foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Beshinchidan, individual yondashuv, fanlararo integratsiya va CDIO metodologiyasining o‘zaro uyg‘unligi ingliz tilini o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu integrallashgan model o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning kommunikativ kompetensiyasini

rivojlantirish, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonining amaliy yo'nalganligini ta'minlash imkonini beradi.

Oltinchidan, tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini individual yondashuv asosida, fanlararo integratsiya va CDIO metodologiyasi bilan uyg'unlashtirib o'qitish bo'yicha ilmiy-metodik modelni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur model o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga ularning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi tavsiya etiladi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish metodikasiga individual yondashuv tamoyillarini tizimli ravishda integratsiya qilish va har bir o'quvchining ta'lim ehtiyojlariga mos differensial o'quv topshiriqlari bankini yaratish;
- ingliz tili darslarini matematika, tabiiy fanlar, informatika, texnologiya va ijtimoiy fanlar bilan fanlararo integratsiya asosida rejalashtirish hamda mazkur yo'nalishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- CDIO yondashuvining bosqichlari asosida loyiha faoliyati, tadqiqot topshiriqlari, muammoli vaziyatlar va jamoaviy ishlash metodlarini ingliz tili darslariga tizimli ravishda joriy etish;
- ingliz tili o'qituvchilari uchun individual ta'limni tashkil etish, fanlararo integratsiya va CDIO metodologiyasi bo'yicha malaka oshirish kurslari hamda amaliy treninglar mazmunini takomillashtirish;
- o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini baholash mezonlarini CEFR talablari, kompetensiyaviy yondashuv va autentik baholash tamoyillari asosida takomillashtirish;
- sun'iy intellekt, raqamli ta'lim platformalari, virtual ta'lim muhiti va interaktiv resurslardan foydalanish orqali individual ta'limni qo'llab-quvvatlovchi didaktik vositalar majmuasini yaratish;
- ingliz tilini individual yondashuv, fanlararo integratsiya va CDIO metodologiyasi asosida o'qitishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar, elektron dars ishlanmalari, loyiha topshiriqlari va baholash vositalarini ishlab chiqish hamda ularni umumiy o'rta ta'lim amaliyotiga joriy etish.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish, o'quvchilarning kommunikativ va tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning individual o'quv ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'limning amaliy yo'nalganligini kuchaytirish hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modelini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini fanlararo integratsiya asosida va CDIO yondashuvi

yordamida o'qitish ta'limning amaliy yo'nalganligini kuchaytiradi, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi, o'quvchilarning individual o'qishini qo'llab-quvvatlaydi hamda ularda zamonaviy jamiyat talablariga mos kommunikativ, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois CDIO yondashuvini ingliz tili ta'limi metodikasiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mallaeva O.M. Umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilari malakasini oshirish mexanizmlarini individual yondashuv asosida takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Jizzax, 2022. – 52 b.
2. Marasulova D.N. Integrativ yondashuv asosida 5–6 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 45 b.
3. Maxmudov Q.Sh. Ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–11-sinflari misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2024. – 57 b.
4. Crawley E.F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D.R., Edström K. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – 2nd ed. – New York: Springer, 2014. – 311 p.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 235 p.
6. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
7. Richards J.C. Approaches and Methods in Language Teaching. – 4th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 440 p.
8. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019.
9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 184 p.
10. <https://cdio.org/cdio-organization>
11. <https://cfyi.uz/>